

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UO'K: 37. 013. 373. 3. 378. 096

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH****РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ****DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PRIMARY
SCHOOL TEACHERS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL PRACTICE**

Madraximova Moxira Imomaliyevna 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik amaliyot misolida yoritilgan. Pedagogik amaliyot bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilimlarini amaliyotda sinovdan o'tkazish, pedagogik faoliyat mazmuni bilan tanishish, metodik ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil ishlashga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada kasbiy kompetensiyalar tarkibiy qismlari – metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish omillari tahlil etiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida o'quvchilarda didaktik yondashuvlardan foydalanish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish orqali o'zini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс развития профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов на примере педагогической практики. Педагогическая практика является важным фактором для проверки теоретических знаний будущих специалистов, знакомства с содержанием педагогической деятельности, формирования методических навыков и подготовки к самостоятельной работе. В статье анализируются составляющие профессиональных компетенций – методическая, коммуникативная, рефлексивная, организационная и инновационная. Также показаны возможности использования дидактических подходов, эффективной организации учебного процесса и самоанализа деятельности для профессионального роста. Результаты исследования способствуют совершенствованию процесса профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Abstract

This article explores the process of developing the professional competencies of future primary school teachers through pedagogical practice. Pedagogical practice plays a crucial role in testing students' theoretical knowledge, familiarizing them with the content of teaching activities, developing methodological skills, and preparing them for independent work. The article analyzes the main components of professional competencies – methodological, communicative, reflective, organizational, and innovative. It also highlights the opportunities for professional growth through the use of didactic approaches, effective classroom management, and self-reflection. The results of the study contribute to the improvement of professional training for future primary school teachers.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, metodik ko'nikma, innovatsion yondashuv, refleksiya, o'qituvchi tayyorlash.

Ключевые слова: начальное образование, педагогическая практика, профессиональная компетенция, методические навыки, инновационный подход, рефлексия, подготовка учителей.

Key words: primary education, pedagogical practice, professional competence, methodological skills, innovative approach, reflection, teacher training.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning har bir a'zosidan zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish,

pedagogik jarayonni samarali tashkil eta olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiya bu o'qituvchining o'z faoliyatida pedagogik vazifalarni samarali hal etish, o'quvchilarni rivojlantirish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish qobiliyatini ifodalovchi muhim sifatdir. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni pedagogik amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki pedagogik amaliyot nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, ta'lim-tarbiya jarayonini bevosita kuzatish, metodik ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil dars o'tkazish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nafaqat metodik va didaktik yondashuvlardan foydalanish tajribasini orttiradilar, balki o'z faoliyatlarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib darsni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy shakllanishida, ya'ni kommunikativ, refleksiv, tashkiliy hamda innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining modernizatsiyasi jarayonida o'qituvchi tayyorlashning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ilmiy-pedagogik izlanishlarning markaziy yo'nalishiga aylandi. Bu jarayon "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020), [1] O'zbekiston–2030 strategiyasi, [2] hamda Milliy o'quv dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan bevosita uyg'unlashadi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi turli manbalarda o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining bir butun tizimi sifatida izohlanadi. A.Abduqodirov fikricha, kompetensiyaviy yondashuv — bu ta'lim jarayonining markazida shaxsning o'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutuvchi yondashuvdir. R.Karimova (2021) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik amaliyotning ahamiyatini "nazariya va amaliyot integratsiyasi" deb baholaydi, ya'ni o'quv jarayonida olingan bilimlarni real ta'lim muhitida sinovdan o'tkazish imkonini beradi. [3]

Xorijiy tadqiqotchilardan J.Raven (2001) kasbiy kompetensiyani "muayyan faoliyat sohasida samarali natijaga erishish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar majmui" sifatida talqin qiladi. D.Hymes (1972) esa kompetensiyani nafaqat bilimga, balki muloqot, tahlil, refleksiya va ijodkorlikka asoslangan jarayon sifatida izohlaydi.

Shuningdek, OECD (2020) hisobotida ta'lim sifatini belgilovchi eng muhim omil sifatida o'qituvchining professional kompetensiyasi va uzluksiz o'zini rivojlantirish salohiyati e'tirof etiladi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi faqat bilim manbai emas, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi, muloqot yetakchisi va innovatsiyalar tashabbuskori sifatida ko'riladi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi, hamda innovatsion pedagogika tashkil etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchining kasbiy faoliyatida bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirishni, o'z faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va natijaga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Bu yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchi o'quvchi faoliyatini tashkil etish, o'quv jarayonini boshqarish va baholashda mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rganadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi esa pedagogik amaliyot jarayonida har bir talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini inobatga olish, ularning qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos yondashuvni ishlab chiqishga asoslanadi. Bu yondashuv o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning o'zini anglash va o'zini rivojlantirish jarayonining yo'l boshchisi sifatida ko'radi [4].

Innovatsion pedagogika tamoyillari tadqiqot metodikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va tahliliy platformalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa kompetensiyalarni shakllantirishni tezlashtiradi va o'qituvchining kasbiy refleksiyasini mustahkamlaydi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, so'rovnoma, portfolioni tahlil qilish, va refleksiv suhbat metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak

PEDAGOGIKA

o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanish dinamikasi aniqlanib, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf davri bolaning bilim olishga bo'lgan munosabati, o'zini jamiyatda tutishi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki tarbiyachi, yo'lboshchi va psixolog sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. Bunday yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchida keng qamrovli kasbiy kompetensiyalar shakllangan bo'lishi talab etiladi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u o'qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq eta olishi, o'zining shaxsiy sifatleri, kasbiy mahorati va pedagogik yondashuvlari bilan uyg'un holda samarali natijaga erishishini anglatadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari o'zida metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion jihatlarni mujassamlashtiradi. Metodik kompetensiya o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil etishi, ta'lim metod va vositalarini to'g'ri tanlay olishi va didaktik imkoniyatlardan foydalanishini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya o'qituvchilar, ota-onalar va jamoa bilan ijobiy muloqot o'rnatish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, sog'lom psixologik muhit yaratish qobiliyatini bildiradi. Refleksiv kompetensiya esa o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglab yetish va ularni bartaraf etishga intilish jarayonida namoyon bo'ladi. Tashkiliy kompetensiya o'quv jarayonini hamda darsdan tashqari faoliyatlarni to'g'ri rejalashtirish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Innovatsion kompetensiya esa zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish, ijodiy yondashuvni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazish, real o'quv jarayonida faoliyat yuritish imkonini beruvchi jarayondir. Amaliyot davomida talabalar dars jarayonini kuzatadilar, ustozlar tajribasidan o'rganadilar, mustaqil ravishda mashg'ulotlar tashkil etadilar, turli metod va usullarni sinab ko'radilar. Shu bilan birga, ular o'qituvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, darsni samarali tashkil etish, o'z faoliyatini tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar metodik ko'nikmalarni shakllantirib boradilar. Dars ishlanmalari tuzish, didaktik materiallar tayyorlash, interfaol usullardan foydalanish, dars jarayonini samarali rejalashtirish kabi faoliyatlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mas'uliyatni his qilish, ijodkorlik bilan yondashish va tashkiliy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jarayon davomida o'qituvchi bo'lishni istagan talabalar o'zini kasbiy jihatdan sinab ko'rish, o'zini-o'zi anglash, qiziqishlari va imkoniyatlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi ustoz va murabbiylarning rahbarligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tajribali o'qituvchilar tomonidan beriladigan maslahatlar, darslarni kuzatish va tahlil qilish, talabalarga bildiriladigan fikr va mulohazalar ularning kasbiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bunday tajriba almashinuvi jarayoni kelajakdagi o'qituvchining dars o'tkazish mahoratini, o'qituvchilar bilan muloqot qilish madaniyatini va o'zini pedagogik muhitda erkin his qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot o'qituvchilarni zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qo'llashga undaydi. Axborot texnologiyalari asosida dars o'tkazish, elektron resurslardan foydalanish, interfaol o'yin va topshiriqlarni tatbiq etish orqali talaba o'qituvchilarni qiziqitirish, ularning faol ishtirokini ta'minlash, dars samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon nafaqat o'qituvchilarni, balki bo'lajak o'qituvchilarning ham ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularda yangilikka intilish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogik amaliyotni samarali o'tagan talabalar o'z dars jarayonini to'g'ri tashkil eta oladilar, o'qituvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishni o'rganadilar, innovatsion metodlardan foydalanishda faol bo'ladilar, o'z faoliyatini tahlil qilib, xatolarini bartaraf etishga intiladilar. Demak, pedagogik amaliyot bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Uni sifatli tashkil etish ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati va ijtimoiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyotida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy kompetensiyalar metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion jihatlarni o'zida mujassam etib, ularni rivojlantirishda pedagogik amaliyotning o'rni beqiyosdir.

Pedagogik amaliyot jarayonida talaba-o'qituvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, turli pedagogik vaziyatlarni hal etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etish, o'z faoliyatini tahlil qilish va ustozlar tajribasidan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi, balki bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik, yangilikka intilish va mas'uliyat hissini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida talabalar jamoaviy faoliyatda ishtirok etib, maktab hayoti va ta'lim muhitiga moslashadilar. Natijada, ular o'zini haqiqiy pedagog sifatida his eta boshlaydilar va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari sezilarli darajada ortadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni samarali tashkil etish, avvalo, pedagogik amaliyot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va boshqarishga bog'liqdir. Shu bois pedagogik amaliyot tizimini yanada takomillashtirish, uni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va nazariy ta'lim bilan uzviy bog'lash zarur. Bu esa kelgusida ta'lim tizimida raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk, ijodkor va mas'uliyatli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida"gi qonuni O'RQ-637-son
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son 11.09.2023
3. "Pedagogika" (NamDU o'quv adabiyoti / qo'llanma). — Namangan davlat universiteti nashri, 2024 (Pedagogika bo'yicha o'quv material).
4. Qarabayev J.R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari. — 2024.
5. Abduraxmonova N.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko'nikmalarning roli. — 2025.